

### 2021 – yilning yanvar – dekabr oylarida Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 – yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 20 501,3 mlrd. soʻmni yoki 2020 – yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 19 805,5 mlrd. soʻmni (103,3 %), oʻrmon xoʻjaligida – 139,3 mlrd. soʻmni (101,2 %), baliqchilik xoʻjaligida – 556,5 mlrd. soʻmni (142,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.



20 501,3

Xorazm viloyati boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. soʻm

01



19 805,5 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar

02




139,3 Oʻrmon xoʻjaligi

03




556,5 Baliqchilik xoʻjaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)**



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021– yilning yanvar– dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,6 % i– dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 0,7 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 2,3 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Urganch (2 447,7 mlrd. so‘m) va Xonqa (2 178,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahri (59,5 mlrd. so‘m), Urganch shahri (487,2 mlrd. so‘m) va Tuproqqal’a tumanini (538,9 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (100,4 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Xiva (108,8 %), Tuproqqala (108,1%), Qo‘shko‘pir (105,9%) tumanlarida kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar– dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 19 397,1 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 8 714,2 mlrd. so'mni (104,6 %), chorvachilik mahsulotlari– 10 682,9 mlrd. so'mni (101,7 %) tashkil qildi.


## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

44,9 %  
Dehqonchilik  
mahsulotlari




55,1%  
Chorvachilik  
mahsulotlari

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,0 % i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,7 % i– fermer xo'jaliklariga, 3,3 % i– qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

2021– yilning yanvar– dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (34,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bog'ot tumanida (7,7 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Yangiariq tumanida (17,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal'a tumanida (61,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (1,0 %) qayd etildi.

### Dehqonchilik


2021– yilning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8 714,2 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 44,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida sabzavot ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi Urganch (13,8 ming t.), Bog'ot (14,5 ming t.), Xonqa (11,2 ming t.), Xiva (11,0 ming t.), Qo'shko'hir (10,3 ming t.) tumanlarida kuzatildi.




## Don


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan jami 430,5 ming t. don (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 100,0 % ) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,3 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha  
don yetishtirish hajmi, t.






## Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 129,7 ming t. kartoshka (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 2,8 % ga ko'p) etishtirildi. Kartoshka etishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili kartoshka etishtirish umumiy hajmidan 86,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha  
kartoshka  
yetishtirish hajmi, t.




## Sabzavot


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar






Xorazm viloyati bo'yicha  
sabzavot  
yetishtirish hajmi, t.




## Poliz mahsulotlari


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 158,0 ming t. poliz mahsulotlari (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 109,5 %) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidan 48,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha  
poliz mahsulotlari  
yetishtirish hajmi, t






## Meva


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 154,2 ming t. meva (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 103,8 %) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




## Xorazm viloyati bo'yicha meva yetishtirish hajmi, t




## Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 46,6 ming t. uzum (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 103,8 % ) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, t




## Chorvachilik



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10 682,9 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 55,1 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 166,5 ming t. go‘sh t (2020– yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,6 % ga ko‘p), 1071,2 ming tonna sut (1,6 % ga ko‘p), 489,7 mln. dona tuxum (3,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarilgan, 31 117 t. baliq (43,0 % ga ko‘p) ovlangan.

**Go'sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 166,5 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 1,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,1% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.






Xorazm viloyati bo'yicha  
go'sht (tirik vaznda)  
yetishtirish hajmi, t.




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1071,2 ming t. sut (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 1,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,2% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha  
sut yetishtirish  
hajmi, t.




## Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 489,7 mln.dona tuxum (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 4,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 66,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyati bo'yicha  
olingan tuxum  
hajmi, ming dona




## Baliq


**Hajmi,tonna**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon(shaxsiy yordamchi)ji xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 31 117 tonna (2020– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 43,0 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 62,7 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.






Xorazm viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, t.




## Xorazm viloyatida boqilayotgan chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,6 % fermer xo'jaliklariga, 80,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,7 % I qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiy sonidan 12,7 % fermer xo'jaliklariga, 86,6% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,5 % fermer xo'jaliklariga, 63,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 21,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021–yilning 1–yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 947,8 mingtaga etdi.

2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 11,8 mingtaga (1,3 %) ko'paydi.

2021–yilning 1–yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Xorazm viloyati bo'yicha  
yirik shoxli qoramollarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh




## Sigirlar


Soni, ming bosh




O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 361,0 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 6,4 mingtaga (1,8 %) ko'paydi.

2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Xorazm viloyati  
bo'yicha sigirlarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh






## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



O'sish sur'ati




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, jami qo'y va echkilarning 80,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh




## Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 5,7 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 46 boshga (0,8 %) ko'paydi.

2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar, xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 86,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




**Xorazm viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy bosh soni, bosh**




## Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 120,5 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 44,1 mingtaga (0,7%) ko'paydi.

2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 63,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96  
• 71-202-78-89